Xorijdagi vatandoshlarimizdan matematiklar uchun yana bir onlayn seminar

2020-yil 20-avgust kuni O’zR FA Matematika instituti va M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filiali hamkorligida oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari uchun seminar tashkil etildi. Seminarda Avstraliya davlatining Monash universiteti Malayziya filiali professori Akram Hasanov "Elektron ta’lim boshqaruv tizimlarida R dasturidan foydalanish" mavzusida ma’ruza qildi.

Ma’ruzada R dasturlash tilidagi "exams" paketining imkoniyatlari ba’zi kodli fayllar orqali namoyish qilindi. R dasturi yordamida ma’lumotlarni hosil qilish jarayonini o’z ichiga olgan dinamik hujjatlar shaklidagi mashqlarni hosil qilish hamda ushbu mashqlarni Moodle yoki Blackboard kabi ta’lim boshqaruv tizimlariga qulay tarzda joriy etish usullari ko’rsatildi. Shuningdek, bu bilan har bir talaba uchun tezkor yechim va individual fikr-mulohazalarni taqdim etish imkoniyatlari haqida ma’lumot berildi.